

## TURKIY TILLI DAVLATLARNING FALSAFASI, MADANIYATI, ALOQALARI: TARIX, BUGUN VA KELAJAK



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15639521>

Valiyeva Nafisa Abdumajitovna

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

Email: nafisavaliev6@gmail.com

OrcID: <https://orcid.org/0000-0003-0855-126X>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turkiy xalqlarning adabiy va falsafiy merosi, buyuk sulolalar o‘z hukmronligi davrida davlatni haq va adolat bilan boshqarishga, ilm-fan, me’morchilik, madaniyat va san’atni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Go‘mer, Ma’juj, Ashkanoz, Nuh, Kteziy (miloddan avvalgi V-IV asr), Xares Mitilenskiy (miloddan avvalgi IV asr), Polien (miloddan avvalgi II asr), Strabon (miloddan avvalgi I asr), Diodor (miloddan avvalgi I asr), “Chistoni Eligbek hikoyasi”, “Alpomish” dostoni, Mahmud Koshgariyning “Devonu lug‘otit turk” kitobidan “Yoz o‘yinlari” (6 ta to‘rtlik), “Ovdan urushqa” (12 ta to‘rtlik).

**Abstract:** In this article, the literary and philosophical heritage of the Turkish peoples, the great dynasties to rule the state with truth and justice, the development of science, architecture, culture and art are discussed.

**Key words:** Gomer, Magog, Ashkanoz, Noah, Ctesius (5th-4th century BC), Hares Mytilenesky (4th century BC), Poliene (2nd century BC), Strabo (1st century BC), Diodorus (1st century BC), “The story of Chistoni Eligbek”, “Alpomish” epic, Mahmud Koshgari’s “Devonu Lugotit Turk” from the book “Summer Games” (6 quartets), “Hunting to War” (12 quartets).

### KIRISH (INTRODUCTION)

Dunyo tarixida, insoniyat taraqqiyotida turli davrlarda yuzaga kelgan sivilizatsiyalar, saltanatlarning o‘rni va ahamiyati katta bo‘lgan. Ular orasida turkiy xalqlar tomonidan asos solingan qadimiy davlatlar, ularning madaniyat va tamaddunlari alohida o‘rin tutadi. Tarixga nazar tashlasak, buyuk sulolalar o‘z hukmronligi davrida davlatni haq va adolat bilan boshqarishga, ilm-fan, me’morchilik, madaniyat va san’atni rivojlantirishga harakat qilgan.

### ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODLAR (LITERATURE REVIEW)

Qadimgi turkiylarning yuzaga kelishi muqaddas kitoblardan biri “Injil”da, shuningdek, ko‘plab afsonalarda Nuh payg‘ambarning farzandi Yofas nomi bilan bog‘lanadi. “Injil”da Yofasning Go‘mer, Ma’juj, Go‘merning esa Ashkanoz ismli o‘g‘illari bo‘lganligi ko‘rsatiladi. Fanda Go‘mer turkiylarning kimmer, Ma’juj –

Gog va Mago‘g, Ashkanoz – skif qavmlarining paydo bo‘lishiga asos bo‘lgani aytilgan. Tarix otasi Gerodot (miloddan avvalgi V asr) “Tarix” asarining to‘rtinchi kitobida skiflar va ularga yaqin qavmlarning turmush tarzi, hayoti bilan bog‘langan rivoyat hamda afsonalarni keltiradi, skiflarning forslar bilan urushlarini ko‘rsatadi. Bu davr tarixchilarining asarlarida turkiy qavmlar skif, kimmer, sak, massaget kabi nomlar bilan yuritilgan. Qadimgi turkiylarning hayoti Kteziy (miloddan avvalgi V-IV asr), Xares Mitilenskiy (miloddan avvalgi IV asr), Polien (miloddan avvalgi II asr), Strabon (miloddan avvalgi I asr), Diodor (miloddan avvalgi I asr) va boshqa antic tarixchilarning kitoblarida yoritilgan, rivoyat hamda afsonalari keltirilgan[1, 8-b].

### MUHOKAMA (DISCUSSION)

Turkiy xalqlarning dastlabki falsafiy qarashlarining antik davrini belgilash masalasiga birinchilardan bo‘lib professor A.Fitrat kirishgan edi. U “O‘zbek adabiyoti namunalari” kitobida falsafiy qarashlarning dastlabki davrini “Qabilaviy adabiyot” deb hisoblaydi. Uning fikricha, qabilaviy adabiyotning eng muhim ko‘rinishi doston adabiyotidir. Bu o‘rinda u “Chistoni Eligbek hikoyasi”, “Alpomish” dostoni, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” kitobidan “Yoz o‘yinlari” (6 ta to‘rtlik), “Ovdan urushqa” (12 ta to‘rtlik)ni ko‘rsatadi. Ikkinci davrni esa “Feodallik davri adabiyoti” deb nomlaydi va VIII asrdan islomiy adabiyotgacha bo‘lgan davrni asos qilib oladi. Ikkinci davr adabiyoti namunalari sifatida Urxun Abdurashid Abdurahmonov. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi yozuvlaridagi adabiy parchalar, “Alp Er To‘nga” marsiyasi (8 ta to‘rtlik), “Yoz haqida” (5 ta to‘rtlik) hamda “Qo‘rqut ota kitobi” dostoni, shuningdek, “Devonu lug‘otit turk”dan axloqiy – ta’limiy xususiyatga ega bo‘lgan she’riy parchalar e’tiborga olingan. Fitrat o‘zbek adabiyoti tarixining uchinchi davrini “Savdo sarmoyasi davri adabiyoti” deb ataydi hamda uning namunasi sifatida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul haqoyiq” va o‘zbek mumtoz adabiyotida so‘nggi asrlarda yaratilgan o‘nlab asarlardan namunalar beradi. Islomgacha bo‘lgan turkiy xalqlar og‘zaki ijodini alohida davr sifatida o‘rganish dolzarb masaladir. Chunki bu davrda turkiylar o‘rtasida diniy e’tiqodlar boshqachaligi, qavmlar shakllanish davrini o‘taganligi, mifologik tasavvurlarda jahon xalqlari bilan umumiy o‘xshashlik holatlari mavjudligi badiiy adabiyotdagi g‘oyaviy yo‘nalish o‘ziga xos tarzda ro‘y bergenligini ko‘rsatadi. Turk olimi Ahmed Qabiqli islomgacha bo‘lgan turk adabiyotini to‘rt davrga bo‘lib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi[2, 19-b].

### NATIJALAR (RESULTS)

Turkiy xalqlarning bobokalon shoiri va mutafakkiri Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”) asari O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondida saqlanayotgan nodir nashrlardan biri bo‘lib, Venadagi Imperatorlik va Qirollik saroyi kutubxonasida saqlanayotgan nusxasining faksimilesidir. «Qutadg‘u bilig»ning badiyligi juda yuqori. Undagi har bir qirra, voqyealardagi hayotiylik va shoir xayoli o‘zaro uyg‘unlashgan. Shoirning tasvirlari yorqin, tili nihoyatda shirali, mazmunga boy. Uning juda ko‘p baytlari hikmatli

so‘z (aforizm) darajasiga ko‘tarilgan. Har bir bayt tugal tasvir (yaxlit obraz) beradi. Kitobning kirish qismida rus va nemis tillarida asar haqida qisqa ma’lumot berilgan. «Qutadg‘u bilig» kitobi birinchi navbatda, xoqon va beklar, ya’ni yurtning hukmdorlari uchun atab yozilgandir. «Qutadg‘u bilig» XI asr so‘z san’atining nodir namunasi bo‘lib, unda o‘z davrining ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an’analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma’lumot berilgan. «Qutadg‘u bilig»ning «Til odobi» («Til ardam») deb nomlangan 7-bobida muallif tilning jamiyat va madaniy hayotdagi o‘rni, dunyoni, uning sir-sinoatlarini bilish va o‘rganishdagi ahamiyati, til ilmi, nutq odobi va notiqlik san’ati kabi masalalar haqida fikr yuritadi. Yusuf Xos Hojib ijodi «Qutadg‘u bilig» kitobida atroflicha ochib berilganligi bizga uning o‘z zamonasining barcha asosiy ilmlarini puxta o‘rgangan, arab va fors tillarini mukammal egallaganidan darak beradi. Muallif har jihatdan yetuk, komil inson bo‘lish uchun o‘z davridagi tabobat va ilmi nujumdan tortib barcha tabiiy va aniq fanlarni chuqur o‘rganish va puxta o‘zlashtirish zarurligini qayd etadi. Yusuf Xos Hojib o‘z zamonasining yirik donishmandi, ilm-ma’rifat jarchisi va homiysi sifatida bilimni baxt-saodatga erishishning bosh kaliti deb hisoblaydi.

Bugun sayyoramizda yashayotgan turkiy tilli xalqlarning umumiy soni 250 milliondan oshadi. E’tirof etish joizki, hozirgi kunda ham turkiy tilli davlatlar o‘rtasida har tomonlama hamkorlik aloqalari tobora rivojlanmoqda. Muhtaram Prezidentimizning tashqi siyosatdagi ochiqlik, amaliy va konstruktiv sheriklikka qaratilgan siyosati natijasida yangi O‘zbekiston dunyoga tobora keng ochilyapti. Shu ma’noda O‘zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining 2019-yil 15-oktabrda Boku shahrida bo‘lib o‘tgan sammitida ilk bor to‘la huquqli a’zo sifatida ishtirok etdi[3, 26-b.]. Kengashning asosiy maqsadi qardosh mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiyot, transport, energetika, turizm va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash bo‘yicha sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishdan iborat.

Davlatimiz rahbari 2018-yili Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan sammit davomida turkiy tilli xalqlarning dunyo sivilizatsiyasi rivojiga qo‘sghan beqiyos hissasi va nihoyatda boy yozma merosini birgalikda chuqur o‘rganish kerakligini alohida ta’kidlagan edi. Shu bilan birga, Prezidentimizning Yangi O‘zbekiston strategiyasida kitobida belgilangan “O‘zbekiston xalqaro tuzilmalar bilan amaliy muloqotni rivojlantirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik va amaliy sheriklikni kengaytirish” tamoyiliga binoan, O‘zbekistonda yangi siyosiy tizim yaratilgani, amalga oshirilayotgan xalqaro hamkorlik bo‘yicha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik asosidagi integratsiya va hamkorlik aloqalari mustahkamlanayotganining omillari ochiqlik siyosati ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy tomonidan tahliliy tadqiq etish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan[4, 67-b].

2019-yilning noyabr oyida Samarqand shahrida Turkiy tilli davlatlar tashkiloti kengashining navbatdagi sammiti bo‘lib o‘tishi, unda yoshlar muamolari,

“yashil” iqtisodiyot, raqamlı texnologiyalar, ta’lim va madaniyatni rivojlantirish masalalarini muhokama qilish ko‘zda tutilgani anjuman ishtirokchilari tomonidan qayd etildi.

2022-yil 29-iyul kuni O‘zbekiston Prezidentining “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi turizm rivojini yangi bosqichga olib chiqish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni belgilab berdi, – deydi. Xususan, Kengashga a’zo mamlakatlar ahlini mamlakatimizning tarixiy madaniy merosiga jalb qilish hamda umumiy madaniy merosimizni barcha a’zo va kuzatuvchi davlatlar tillarida targ‘ib qilish, turistik mahsulot va xizmat turlarini diversifikatsiya qilish, ziyorat turizmi uchun qulay muhit yaratish respublikamizning ushbu yurtlar bilan turizm hamkorligini mustahkamlash barobarida, mintaqaning turistik jozibadorligini ham oshiradi.

Turkiy xalqlar, ularning davlatlari, turkiy sivilizatsiya Buyuk Ipak yo‘lining markaziy qismida joylashgan. Turkiy xalqlarning tillari rivoji masalalari hozirgi zamonda dolzarb va ahamiyatli masalalardir. Ming yillar davomida turkiy til yagona bo‘lib kelgan[5, 98-b]. Garchi yagona turkiyning shevalarga bo‘linishi o‘rta asrlarda boshlangan bo‘lsa-da, faqat XX asrda alohida tillar darajasidagi tafovutlar vujudga keldi. Bu bo‘linib ketish jarayonida XX asrning birinchi choragida avj olgan turkiy dunyo birligi uchun harakat stalinchi qatag‘on orqali tor-mor qilingani hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi[6, 32-b]. Asrlar davomida tarixan shakllangan va “turkiy til” nomi bilan ma’lum bo‘lgan tilni turkiy xalqlar uchun umumiy adabiy til sifatida ishlatish sari harakat shu vahshiy qatag‘onlar natijasida tugatildi.

Yurtimizda “Turkiy tilli davlatlar tashkiloti kengashiga a’zo mamlakatlar ahlini yurtimiz tarixiy madaniy merosiga bo‘lgan e’tiborlarini jalb qilish masalalari”, “Turkiy xalqlarning tillari rivoji masalalari”, “Milliy madaniyatning oliy namunasi”, “O‘rta osiyo va Qozog‘iston xalqlari siyosiy madaniyati”, “Vengriya va turkiy davlatlar tashkiloti munosabatlari borasida”, “Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi faoliyat – davlat imijining yetakchi omili sifatida” kabi tadbirlar o‘tkazildi[7, 3-b].

### XULOSA (CONCLUSION)

E’tirof etish joizki, yurtimiz bugungi kunda Uchinchi Renessans davri ostonasida turibdi. Uchinchi Renessans mustahkam poydevorini yaratish uchun, avvalo, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho tarixiy, ilmiy va madaniy merosini o‘rganish nihoyatda zarur. Chunki, qardosh turkiy xalqlarning jahon sivilizatsiyasiga qo‘sghan bebaho hissasi, mushtarak xalqlarning ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarni asrab-avaylash va yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muxtasar aytganda, turkiy xalqlarda buyuk ajdodlarga nisbatan hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o‘rganishga qiziqish hamisha yuqori bo‘lgan. Bu kabi xalqaro darajadagi ilmiy anjumanlar esa tarixiy, madaniy va ilmiy

yo‘nalishlarda o‘zaro munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, mavjud juda katta imkoniyat va salohiyatdan to‘liq va unumli foydalanish uchun mustahkam zamin yaratishi shubhasiz.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):**

1. Boynazarov F. O‘rta Osiyoning antik davri.: Dorilfunun va dorilmuallimlar uchun darslik. T. : O‘qituvchi, 1991, 472 b.
2. Брагинский И. С. Из истории персидской и таджикской литературы. Избр.работы. – М. – «Наука», 1972, - 524 ст.
3. Valixo‘jayev B. O‘zbek epiк poeziyasi tarixidan. – Т.: «Fan», 1974, 151b.
4. Valixo‘jayev B. Alisher Navoiy she’riyati. –Samarqand, -2001, 100 b.
5. Брагинский И. С. Из истории персидской и таджикской литературы. Избр.работы. – М. – «Наука», 1972, - 524 ст.77.
6. Гринсер П. А. Древнеиндийский эпос. – Генезис и типология.-М. «Наука», 1974, - 419 ст.78.
7. Turan, F. A., & Önal, M. N. (Eds.). (2023). Türk Dünyası Masal Araştırmaları. Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı. ISBN 978-975-17-5788-3.